

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida ish yuritishning asosiy muammolari

Ummatov Madaminbek Botirbek O'gli,

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda hozirgi kunda yurtimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida ish yuritishning asosiy kamchiliglari va kuzatuvlar natijasida aniqlangan transformatsiyalish jarayonidagi muammolarni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari, MHXS, transformatsiyalash, ransformatsiyalash kamchiliglari, MHMS.

Hammamizga ayonki mamlakatimizda investitsion muhitni kengaytirish, xorijiy investorlar oqimini oshirish, shu jumladan jaxon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va bu orqali mamlakatda qulay ishlab chiqarish zonalarini barpo etib, raqobatbardosh ishlab chiqarishni tashkil e'tish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori¹ tasdiqlangan bo'lib, milliy buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish hamda transformatsiyalish jarayonlari yuzasidan hozirda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir ishning o'ziga yarasha qiyinchiligi hamda murakkabligi mavjud bo'lib, bu kabi holatlarni bartaraf e'tish hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida hisobot taylorlash uchun eng avvalo sohadagi kamchiliklar va muammolarni bilib olishimiz lozim hamda bundan xulosa chiqorib bartaraf etishimiz orqaligina mamlakatda to'laqonli xalqaro satndartlarni joriy e'tishimiz mumkin.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli qarori:

<https://lex.uz/docs/-4746047>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Transformatsiyalash jarayonlari tizimli yo'l xaritasiga ega bo'lsa ham o'ziga xos kamchiliklar hamda muammolari bugungi kunda ko'zga tashlanmoqda. Muammolarni bartaraf etilishi va moliyaviy hisobning xalqaro standartlari asosida muammolarsiz ish yuritilishi uchun eng avvalo shu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bilamizki milliy buxgalteriya hisobidan asosan soliq va statistika organlariga hisobot taylorlash uchungina milliy hisob tizmidan foydalanib kelinmoqda. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga transformatsida qilish asosan milliy buxgalteriya hisob yozuvlarida aks e'tirilgan ma'lumotlarni qayta ishslash orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa milliy buxgalteriyadagi ayrim kamchiliklarni yuzaga chiqoribgina qolmasan hisob yozuvlardagi klassifikatsiyalarni qayta xalqaro standartlariga o'tkazish bir muncha murakkab vaziyatlarni keltirib chiqoradi. Misol uchun oldinlari asosiy vositalar Moliya Vazirligi tomonida e'lon qilingan index orqali qayta baholanar edi, MHXS esa buni qabul etmaydi, shuning uchun qayta baxolangan qiymatni avvalgi holatiga qaytarishni talab e'tadi, bu o'z o'zidan ko'rinish turibdiki avvalari qancha qancha asosiy vositalar baholangan va bu baholanish evaziga hisobdan chiqarib yuborilgan yoki sotib yuborilganlarini qayta hisob kitobini qilish bir muncha vaziyatni qiyinlashtiradi².

BHMS+tuzatuvchi o'tkazmalar = MHXS³

Yuqoridagi formula orqali hozirda mamlakatimizda BXMSga tayangan holda MHXSga transformatsiyalash jarayonlari ketmoqda. Bu jarayonni to'g'ridan to'g'ri amalga oshirishimiz uchun eng avvalo soliq qonunchiligimiz moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga to'laqonli mos va muvofiq bo'lishini taqazo etadi. Shu qatorda kadrlarga bo'lgan ehtiyojimiz ham yo'q emas, tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki hozirda mavjud bo'lgan yirik korxonlardagi MHXS asosida ish olib boradigan kadrlar asosan xalqaro auditorlik tashkilotlariga yoki horij ish

²Qudbiyev, N.T.(2021),Xalqaro moliyaviy hisob standartlariga o'tish dolzarbligi. Relevance of the transition to international financial accounting standards. SJ international journal of theoretical and practical reserch 1(2)56-74.

³ Dilobar Dilshod qizi Mirsodikova:WAYS OF TRANSITION OF BUSINESS ACCOUNTING ON IN IFRS MODERN CONDITIONS OF LIBERALIZATION THE ECONOMY 3-page; https://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_No_12/245-250.pdf

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tajribasi mavjud bo'lgan shaxslar bilan cheklanmoqda. Yana shuni aytish joizki hozirgi paytda faoliyat yuritib keladigan ko'plab moliyachilar hamda buxgalterlar moliyaviy hisobning barcha xalqaro standartlarni mazmun va mohiyatdan kelib chiqib faoliyat olib borisholmasligi tufayli auditorlarni yoki konsalting xizmatlarni yollash orqali MHXSga transformatsiya qilish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishmoqda.

Moliyaviy hisobotni xalqaro satnadartlari asosida ish yuritish borasida qator olimlar o'z fikirlarini berib o'tishgan bo'lib, unga ko'ra AQSHlik olim Minga Negash o'zining "MHXS ni qabul qilish oqibatlari" deb nomlangan ilmiy asarida moliyaviy integrastiya, daromad barqarorligi va bozor mikro tuzilmasining MHXS ga tasiri yuqoriligini baholab asosiy muammolardan biri sifatida tasniflagan⁴. Germaniyalik olimlar Brüggemann, Ulf, Hitz, Jörg-Markus, Sellhorn hamda Thorsten o'zlarinig "Majburiy MHXS ga o'tisning maqsadi va kutilmagan oqibatlari" deb nomlangan ilmiy asarlarida asosan iqtisodiy holatning MHXS hisob tizimiga o'tishda taylor emasligi eng asosiy va dolzarb muammolar sifatida keltirib o'tishgan⁵. Carol A Adams and Frank Mueller o'zlarinig ilmiy asarlarida "MHXS asosida ish yuritish uchun eng avvalo buxgalteriya hisobidagi mavjud hujjatlar hamda mamlakatning amaldagi qonun hujjatlaridan boshlash maqsadga muvofiqligini ilgari surib yuqoridagilarsiz ish boshlash korxonalarining samarasiz hisob tizimini keltirib chiqorishini takidlaydilar⁶. Kaliforniya universiteti olimi Syed Zaidi hamda Hind olim Veronica Paz "MHXSni qabul qilishning ta'siri" deb nomlangan ilmiy asarlarida aktivlar va majburiyatlarni MHXS asosida qayta o'lchashning qiymat yondashuvidan foydalanish asosiy muammolardan biri

⁴ Minga Negash:The effects of IFRS adoption: A review of the early evidence page-1:

https://www.researchgate.net/publication/237563725_The_effects_of_IFRS_adoption_A_review_of_the_early_evidence1

⁵ Brüggemann, Ulf; Hitz, Jörg-Markus; Sellhorn, Thorsten: Intended and unintended consequences of mandatory IFRS adoption page-3; y-12

⁶ Adams, CA and Mueller, F (2022) "Academics and policy makers at odds: the case of the IFRS Foundation Trustees' Consultation Paper on Sustainability Reporting:Page-6

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sifatida o'z fikir mulohazalarini keltirib o'tishgan⁷.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni takidlash joizki MHXSga istalgan paytda, tayyorgarliksiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tib bo‘lmaydi. Agarda tayyorgarliksiz moliyaviy hisobot MHXSlar bo‘yicha transformatsiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi. Yuqoridagi kabi muammolarga duch kelmasligimiz uchun quyidagi xulosa va takliflarni keltirishimiz mumkin;

- O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari imkon qadar MHXSlariga uyg‘un bo‘lishini ta’minlashimiz kerak. Agar o‘rtada tafovut katta bo‘lsa transformatsiya jarayoni qiyinlashadi, transformatsiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi;
- Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishda me’yoriy huquqiy hujjat faqat Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun va buxgalteriya hisobi standartlari bo‘lishi kerak. Nizomlar, yo‘riqnomalar va qoidalarni ham bosqichma bosqich standartlarga aylantirishimiz kera⁸;
- Buxgalterlarni xorijda malaka oshirishini ta’minlash orqali xalqaro yetuk mutahasilarga ega bo‘lishimiz mumkin;
- Kompaniyada moliyaviy hisobotni xalqaro standarlarini maxsus dasturlar asosida yuritishni ta’minlash (hozirda biror bir satandart dastur mavjud emas);
- Kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruva tizimini xalqaro standart talablariga muvofiqlashtirish kerak.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda MHXS asosida hisobot taylorlashimiz bizga vaqtidan unumli foydalanib, hisob yozuvlarini to’liq holda aks etirishimiz uchun muhum vosita hisoblanadi.

⁷ Syed Zaidi and Veronica Paz:THE IMPACT OF IFRS ADOPTION:A LITERATURE REVIEW:page-8

⁸ Moliyaviy hisobotlarni MXHS bo‘yicha transformatsiyasining zarurati, mohiyati va dolzarbligi 4-bet:
<https://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1852>

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Toshkent sh., 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 sonli.
2. Islomova G. "MHXs bilan ishlashga tayyormiz"// СБХ/2022 yil/№18. 4-бет
<https://bakertillyuz.com/ru/>
3. Qudbiyev Nodir Tohirovich-“International financial accounting standards in Uzbekistan” //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 4. – С. 328-333:
4. Moliyaviy hisobotlarni MXHS bo'yicha transformatsiyasining zarurati, mohiyati va dolzarbligi 4-bet:
<https://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1852>
5. Sh.T. Ergasheva, A.K.Ibragimov, N.K.Rizayev, I.R.Ibragimova. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. T.:2019. 65-bet.
6. O.Narzullayeva. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish orqali iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish. International Journal of Finance and Digitalization www.ijfd.uz ISSN: 2181-3957 Vol. 1 Issue 02, 2022
7. Ibragimov A., Rizaev N.Q. UZBEKISTAN HAS IMPROVED ITS POSITION IN THE GLOBAL INNOVATION INDEX RATING. //International Journal of Management, IT & Engineering Vol. 14 Issue 03, March 2024. (15-23 бетлар)
8. Rizaev N., Ibragimov A., Ergasheva Sh, Yakubov M – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari / Darslik – qayta to'ldirilgan 2-chi nashri. T.: «.Moliy», 2023 – 310 b.
9. Ibragimov A.K., Auditning xalqaro standartlari asosida tijorat banklarida ichki auditning tashkiliy asoslari. O'quv qo'llanma. – Т.: Moliya. 2013. – 384 b.